

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

B.Sh.Shermuhammadov, B.Q.Qurbanova

Bo'lajak pedagoglarni kompetensiyaviy yondashuv asosida pedagogik faoliyatga tayyorlash mexanizmini rivojlantirish.....7

I.Tuychiyeva, Z.Axunova

Yuqori sinf o'quvchilarining ma'naviy kompitentligini rivojlantirishning pedagogik asoslari.....10

D.R.Yuldasheva

Bo'lajak vokal o'qituvchilari kasbiy faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan omillar.....14

A.R.Saydullayeva, B.Mahmudova

Yuqori sinf o'quvchilarini ijtimoiy hayotga tayyorlashda gender yondashuvning ahamiyati20

I.I.Soliyev

Oliy ta'lif muassasalari boshqaruvida institutsional mustaqillikni shakllantirish bosqichlari26

Sh.D.Xonbabayev

Bo'lajak o'qituvchilarni o'quvchilarda milliy va umummadaniy kompetensiyalarni rivojlantirishga tayyorlashning pedagogik asoslari31

M.S.Xoshimov

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik ahamiyati.....36

L.Z.Xolmurodov

Boshlang'ich sinf o'quvchilari koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirishning modulli texnologiyasi.....41

A.Sh.Bazarbayeva

Chet tillarini o'qitishda mashqlar tipologiyasi va tizimiga qo'yilayotgan zamonaviy talablar.....45

N.Sh.Abdiyeva

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasi54

F.A.Boltayeva

Maktabgacha ta'lif tashkilotlarida kuest texnologiyasi orqali tadqiqiy bilish va refleksiv faoliyatni rivojlantirish imkoniyatlari.....59

M.E.Maziyayeva

Maktabgacha ta'lifmda neyropedagogika imkoniyatlaridan foydalanish63

D.D.Boymirzayeva

Oliy ta'lif muassasalarida tashkiliy va boshqaruv mexanizmlarining zamonaviy modellari67

M.O.Ismailova

Kitobxonlik madaniyati - inson umr yo'llarini yorituvchi so'nmas nur71

G.O.Shaxbazova

Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining sport estetikasiga doir bilimlarini rivojlantirishning jismoniy-tarbiyaviy mazmuni75

M.F.Bekchonova

Fanlararo hamkorlikda biologiya yo'nalishi talabalarining biologik xavfsizlikni ta'minlashga doir bilimlarini rivojlantirishning nazariy jihatları79

X.A.Ibragimov

Ta'lif muassasalarida jismoniy tarbiya va sport tadbirlarining samarali shakllari83

A.T.Nazarov

Sport turizmi tavsifi va undan bo'lajak jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarini tayyorlashda foydalanish88

D.M.Xusanov

O'quvchilarni harbiy ideal haqidagi bilimlarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish zaruriyati92

Y.Y.Turakulov

Ta'lifda raqamli texnologiyalarning pedagogik faoliyatga ta'siri.....96

Sh.G'.Xasanov

Bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda pedagogik hamkorlikni loyihalashtirishning nazariy jihatları.....102



УО'К: 378.014.15

**BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA O'QITUVCHILARINING SPORT ESTETIKASIGA DOIR
BILIMLARINI RIVOJLANTIRISHNING JISMONIY-TARBIYAVIY MAZMUNI**

**ФИЗКУЛЬТУРНО-ВОСПИТАТЕЛЬНОЕ СОДЕРЖАНИЕ РАЗВИТИЯ ЗНАНИЙ БУДУЩИХ
УЧИТЕЛЕЙ ФИЗКУЛЬТУРЫ ОБ ЭСТЕТИКЕ СПОРТА**

**THE PHYSICAL-EDUCATIONAL CONTENT OF DEVELOPING THE KNOWLEDGE OF FUTURE
PHYSICAL EDUCATION TEACHERS ABOUT SPORTS AESTHETICS**

Shaxbazova Gulruh Orifjon qizi 

Farg'onan davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya

O'qituvchilarida sport estetikasiga doir bilimlarni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari, sport estetikasiga doir bilimlarni rivojlantirishning amaliy metodik tizimi, sport estetikasiga doir bilimlarni rivojlantirish samaradorligi o'rjanilgan. Shuningdek, bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining sport estetikasiga doir bilimlarni rivojlantirishning jismoniy-tarbiyaviy mazmuni tahlil qilingan.

Аннотация

В данной статье рассмотрены теоретико-методологические основы развития знаний по спортивной эстетике у будущих учителей физической культуры, практическая методическая система развития знаний по спортивной эстетике, эффективность развития знаний по спортивной эстетике. Также проанализировано физкультурное содержание развития знаний будущих учителей физической культуры по эстетике спорта.

Abstract

This article examines the theoretical and methodological foundations for the development of knowledge on sports aesthetics among future physical education teachers, a practical methodological system for the development of knowledge on sports aesthetics, and the effectiveness of the development of knowledge on sports aesthetics. The physical culture content of the development of knowledge of future physical education teachers on the aesthetics of sports is also analyzed.

Kalit so'zlar: pedagog, jismoniy tarbiya, sport estetikasi, sport, texnologiya, didaktik, modernizatsiya, integratsiya, klasterli yondashuv, fosilitatsion ta'lim, refleksiv, interfaol, trening, innovatsion, integratsion.

Ключевые слова: педагог, физическое воспитание, спортивная эстетика, спорт, технологии, дидактический, модернизация, интеграция, кластерный подход, фоссилизирующее образование, рефлексивный, интерактивный, тренинг, инновационный, интегративный.

Key words: pedagogue, physical education, sports aesthetics, sport, technology, didactic, modernization, integration, cluster approach, fossilization education, reflexive, interactive, training, innovative, integrative.

KIRISH

Bugungi kunda dunyo olimlari tomonidan jismoniy tarbiya va sport sohasi mutaxassislarining kasbiy bilimlari, amaliy ko'nikmalari, sohaviy malakalarini oshirishning ilmiy-uslubiy hamda tashkiliy asoslarini takomillashtirish bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu tadqiqotlarning muhim jihat shundaki, sport muta xassislarini tayyorlash hamda aholi orasida ommaviy sportni rivojlantirishda turli sohalar hamkorligiga e'tibor qaratilmoqda. Natijada, bir tomonidan iqtisodiy yuksalish ortmoqda, ikkinchi tarafdan jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarini dunyoqarashida moddiy manfaatdorlikning asosiya motivga aylanishi, jismoniy kuchni dominant sifatida bilish kabi muammolar yuzaga kelmoqda. Bu esa bo'lajak jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarining tafakkur tarzini kompleks rivojlantirish bilan bog'liq tadqiqotlarni tashkil qilishni talab qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida sport estetikasiga doir bilimlarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslarini tadqiq etishning uch qismga O'zbekistonda, MDH mamlakatlarida va G'arb mamlakatlarida o'rganilishi sifatida tasniflash mumkin.

O'zbekistonlik olimlardan N.N.To'xtaboyev, A.N.Shopulatov, S.S.Tajibayev, F.Kerimov, A.Shopulatov, A.Muzaffarov, A.Mirzayev, A.Xudoyorovlar jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarining kasbiy mahoratini rivojlantirish, sportchilarda ma'naviy qadriyatlarni shakllantirish ishlarini samarali tashkil qilish masalalari o'rganilgan. Shuningdek, S.X.Fayzulina, S.K.Annamuratova, A.Hasanov, F.Jo'rayev, A.Vosiqov, A.Sulaymonov, K.Dosimov kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida estetik tarbiya, sport estetikasining tarbiyaviy imkoniyatlari yoritilgan.

G'arb davlatlarida yoshlarni ommaviy sport sog'lomlashtirish jarayoniga yo'naltirish, bunda sport estetikasining imkoniyatlaridan oqilona foydalanish va bu borada jismoniy tarbiya ta'lim imkoniyatlarini oshirish masalalari olimlardan B.Lou, H.Slyusher, F.Kinon, A.Vett, E.Zadarko, J.Yunger, Z.Barabas, D.Braun, A.Alpers tomonidan tadqiq etilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Talabalarni jismoniy mashg'ulotlar jarayonida estetik tarbiyalashda ularning yosh xususiyatlariga alohida e'tibor beriladi, chunki o'spirinlik yoshi g'oyatda murakkab va hatto ijtimoiy jihatdan bir qadar betakror bo'ladi. Shuning uchun ham o'spirinlarga nisbatan individual (yakka tartibda) va tabaqlashtirilgan yondashuv talab qilinadi. Talabalarni estetik tarbiyalashning ahamiyati muttasil ortib bormoqda. Chunki sportni estetik baholash jismoniy tarbiya vositasida shakllantiriladigan va munosabatning sabablari va reguluatorlari sifatida zaruriy omildir. Jismoniy tarbiya, shuningdek, qimmatli estetik yo'nalishlarni shaklantirshga yordam beradi, estetik-ijodiy qobiliyatni rivojlantiradi, jismoniy tarbiya va sport, ularga bag'ishlangan faoliyat bilan shug'ullanishga bo'lgan qiziqish va ehtiyojni faollashtiradi.

Sport bilan jismoniy tarbiyalash vazifasi mazkur tarbiyaning ijtimoiy ahamiyatini, shuningdek, uning axloqiy va jismoniy tarbiya bilan aloqasini aniqlab beradi. Shu sabab estetik tarbiyada talabalarning bir-birlari bilan, kattalar (o'qituvchilar, trenerlar, ota-onalar, atrofdagilar) bilan o'zaro munosabatlari ham boshqarib boriladi. Ana shu jarayonda talabalarning ma'naviy dunyosi rivojlanadi, atrof-muhitga bo'lgan obyektiv munosabati tarkib topadi.

Sport – o'zining barcha turlari bilan estetik tarbiya uchun bebaho materiallarni namoyon etadi. Chunki unda professional mahorat, ochiq ehtirosli tuyg'u, shodlik hamda zavqlanishni keltirib chiqaruvchi estetik jarayonlar mavjud. Talabalar shaxsiga estetik taassurotlar ijobiy ta'sir etishi uchun sport estetikasiga ularning ongli qiziqishi zarur, bu tegishli sharoitlarda yaxlit jismoniy madaniyatga aylanadi.

Jismoniy tarbiya bilan bog'liq bo'lgan har qanday faoliyat, ushbu madaniyat to'g'risida kutarinki ehtiros, anglab yetilgan qiziqish, muayyan bilim, tushuncha va tasavvurlarga asoslangan murakkab jarayondir, eng muhimi – qiziqishni ta'sirchan qilish, uni intilishga, qiziqishlar markazi bo'lib qolgan faoliyat bilan shug'ullanishga moyillikka aylantirishdan iboratdir. Qizqarli tarixiy sport materiallari, sport hayotidan yorqin manzaralar, sport mavzusidagi taassurot qoldiradigan san'at asarlari, voqealarini qamrab oluvchi kaleydoskop, mashhur sportchilar hayoti va ijodi o'quvchi-yoshlarda shunday qiziqishni uyg'ota oladi. Ushbu mavzudagi qiziqarli materiallar talabalarning sport estetikasiga bo'lgan qiziqishning manbai bo'lishi mumkin.

Jismoniy tarbiya darslari hamda auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarda talabalarni estetik tarbiyalashning muhim shartlaridan yana biri ularda sport estetikasiga qiziqishni ehtiyoj darajasigacha ko'tarishdir. Shu bilan birga talabalar hayoti va faoliyatining barcha tomonlarini qamrab olish uchun ma'naviy-estetik va, albatta, jismoniy qobiliyatni rivojlantirish imkoniyatlari berilishi lozim. Zero, jismoniy tarbiya vositasida estetik tarbiyalash bir yoqlamalikni emas, balki barkamollikni shakllantirishga qaratilgan barcha omillarni ishga solishni nazarda tutadi.

Sport estetikasiga qiziqini tarkib toptirish bir qator omillarning:

- fon, muhit, bilish-anglash, materialni talabalar shaxsining kognitiv-bilish sohasiga ta'sir etishi, birinchi navbatda, ijtimoiy-shaxsiy yo'naltirilganligining motivatsion ta'sir etishini talab etadi.

Sport estetikasi bilan qiziqishi sportning istalgan turida sport estetikasini idrok etish va baholash, estetik ifoda elementlari bo'yicha mashqlar, harakatlar bajarish, egallangan ko'nikma va malakalarni qo'llash bilan faollashtiriladi. Bu yerda ishtiyoq muayyan psixologik-pedagogik ta'sir ostida paydo bo'lgan qiziqish sifatida faollashadi va barqarorlashadi.

PEDAGOGIKA

Qiziqishni ma’no, psixologik va ijtimoiy tushuncha sifatida ko’rib chiqish, uning xususiyatlari, mazmuni va tavsifi, turlari hamda funksionalligini o’rganish asosida sport estetikasiga nisbatan tavsifni shakllantirish mumkin. Bu sportga yaxlit holda, jumladan, estetik qiziqish obyekti yanada chuqurroq o’zlashtirishga, o’zini namoyon etishga, qaror toptirishga – bundan quvondi va rohat qilishga (hissiy-ijtimoy o’zini namoyon etish) bo’lgan tashkiliy-irodaviy intilishdir.

Jismoniy mashg’ulotlarda, tanlagen sport turlarida egallagan mahorati – sport bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni yanada oshirishga bo'lgan ehtiyoj va qobilyatning mavjudligi ham shaxsni o'zining tashqi go'zalligini oshirishga bo'lgan ongli munosabati va faoliyati sport estetikasining tasnifi tariqasida talqin etilishi mumkin. Shu tariqa sport estetikasiga qiziqishning asosiy ko'rsatkichlari aniqlandi: ijobiy, ijtimoiy-shaxsiy sabab; topa olish - bilish; baholovchiyo'natirilgan; ehtiyojli-faoliyatli.

Sport estetikasiga bo'lgan bunday qiziqish - talabalarning nafaqat jismoniy madaniyati, balki umumiylarini ham rivojlantirish uchun muhimdir. Sport estetikasiga qiziqish ko'rsatilgan ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish, usullarini qarab chiqish, talabalarni mashg’ulotlar, lavhalar, qiziqish va qobilpyatga oid topshiriqlarning variatlari bilan tanishtirish va faollashtarishdan iborat. Bunda aniq mazmunli, axborotlarga boy bo'lgan ishontiruvchi suhbat hamda esda qoladigan ko'rgazmali-rasmli (illyustratsiyali) material muhim ahamiyatga ega.

Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchialrida sport estetikasiga qiziqishni faollashtiradigan suhbatga shunday talablar qo'yiladi: yoshga muvofiqlik; jozibalik; bilish-anglash imkoniyati – estetik ifodali, kurgazmali-rasmli, yuqori sifatli materiallar ilova qilingan, zamonaviy axborotlarni qamrab olgan yorqin, unitilmas mazmun; aniq qo'yilgan maksad hamda tushuntirilgan vazifali suhbat, muhimi - muayyan dalillar bilan bayon etish; talabalarning samimiyy va hissiy mulohazalarini qo'llab-quvvatlash; qulay (shinam) muhit; o'smirlarga nisbatan shaxsiy yakka tartibda yondashuvga rioya qilish maqsadga muvofiq.

Sport estetikasini san'at bilan bog'lash g'oyatda samarali natija beradi. Chunki, sport bilan san'at o'z xususiyatlariga ko'ra bir-biri bilan uzviy aloqador bo'ladi. Bu aloqadorlikni san'atning turli ko'rinishlarida kuzatish mumkin: teatr (sahna) plastikasi, atletizm (balet); jasurlik jihatidan o'ta go'zal va murakkab akrobatika (sirk san'ati) va hokazolarda. Ayni paytda sport mavzusini teatr, kino, tasviriy san'atda tasviriy syujet sifatida tasvirlanishi sport va san'atning chambarchas bog'Iqligini anglatadi. Ularni umumlashgan holda sport estetikasi deb ta'riflash mumkin.

Sportdagagi go'zallikni his etish unga bo'lgan qiziqishni mustahkamlaydi, sportdagagi go'zallikni idrok etish esa uni yanada tushunarli va barqaror qiladi. Sport estetikasiga qiziqishni murakkab metodlar, original usullar, turli xil vositalar faollashtiradi va ular, agar darslarni sinfdan tashqari mashg’ulotlar bilan o'zaro bog'lanishiga ko'mak bersa, tabiiyki, muayyan maqsadli va mazmunli yaxlit tizimni shakllanttaradi. Bu estetik tarbiyaning eng samarali shakllaridan biri sanaladi.

Qiziqish – estetik tarbiyaning asosiy komponenti. U maxsus ta'limiy va tarbiyaviy vositalar yordamida faollashtiriladi va doimiy qo'llab-quvvatlanadi. Shundagina, talabalarning sport estetikasiga bo'lgan qiziqishi asosida estetik tarbiya o'zining yuqori darajasiga yetadi. Qiziqish ushbu jarayonda talabalar shaxsidagi eng muhim asosni ta'minlaydi: madaniyat, fikrlash dunyosi, jumladan sport estetikasi; estetik idrok etishning tezligi, sport go'zalligi, analistik qobiliyat va umuman, ayniqsa sportdagagi qimmatli yo'nalishlar; ijodiy qobiliyat; kommunikativ ehtiyoj; jismoniy kamolotga talab hamda mustaqil o'qish va eng muhimi ular ma'naviy olamni boyitadi, natijada har tomonlama rivojanish yuz beradi, bo'sh vaqt yoqimli va foydali o'tadi, bu esa, jamiyatimiz, mamlakatimiz, hukumatimizning ijtimoiy buyurtmasi hisoblanadi.

Muammoning ijtimoiy xarakter kasb etishini yana quyidagi omillar bilan izohlash mumkin. Ta'kidlaganimizdek, jismoniy madaniyat, aynan madaniyat, ya'ni go'zal qomatni tarkib toptirish, mukammal shaxs tarbiyasining asosiy shartlaridan bira bo'lib kelgan. Jamiyatning o'z a'zolariga bo'lgan bunday talabi hozirgi kunda ham o'z ijtimoiy kuchini yo'qotgan emas. Demak, jismoniy mashqlar vositasida estetik madaniyatga intalish kishilik jamiyatni taraqqiyotining barcha bosqichlarida kuzatilib kelinadi. Aynan mana shu jihat uni ijtimoiy hodisa ekanligini tasdiqlaydi.

Shuningdek, jamiyat taraqqiyotining har bir bosqichida aynan shu bosqichga mos va xos ijtimoiy buyurtma beriladi. Bu buyurtmaning "bajaruvchisi", talab etilgan shaxsni tarbiyalash bilan esa pedagogika fani shug'ullanadi. Har qanday jamiyatning, mamlakatning rivojida uning barkamol a'zolari hal qiluvchi rol o'ynagan, Bu borada sport va san'at o'zgacha ahamiyat kasb etadi. Ularning bir-biri bilan tutash nuqtalarida sport estetikasi elementlari tarkib topib boradi.

Jismoniy tarbiya va sport insonga xushkayfiyat, estetik ruh, harakatchanlik, epchillik, chaqqonlik, jismoniy faoliyot baxsh etadi. Bu xususda B.Lou o'zining "Sport go'zalligi" degan kitobida F.Kinonning "Teatr, tomoshabinga suyanib rivojlanadigan san'at turi... Sport musobaqalarida tomoshabinlar o'zlarini xuddi spektakl tomoshosidagidek tutadilar: ular yuksak mahorat egalariga qarsak chaladilar va yomon o'yin ko'rsatganga nisbatan salbiy munosabatlarini yashirmaydilar. Sportda ham, teatrda ham biz "o'yin" haqida gapiramiz" degan fikrini keltirar ekan sportning axloqiy-estetik tarbiyaviy ahamiyatga egaligini nazarda tutadi. Shuningdek B.Lou H.Slyusherning "Sport va ekzistensiya" kitobidagi "Sport – toki haqiqiy sport ekan, u estetik fazilat va nafislikka erisha oladi. U sportchi uchun chuqur ma'noga boy holat... sport botiniy yaxlitlikni va yuksak darajadagi hissiy ko'tarinkilikni talab qiladi" bu bilan H.Slyusher sportchi his etadigan estetik zavq haqida ta'kidlaydi deb fikr bildiradi. Bundan ham ko'rinib turibdkik sport shaxsda jismoniy go'zallikni his qilish qobiliyatini tarbiyalash uning kamolotida katta o'rinni tutadi. Bu sohada amalgalashuvda amalga oshirilayotgan ishlar sog'lom va barkamol avlodning jismoniy go'zalligi, sog'lom turmush tarzini shakllantirishga qaratilgandir.

Faylasuf olim T.Mahmudov "Jismoniy madaniyat, keng ma'noda, inson-ning barcha tabiiy va ijtimoiy qobiliyatlarini ro'yobga chiqaruvchi, uni tobora insoniyashtirib, yuksaltirib boruvchi jarayondir"³ deya ta'kidlaydi. Bu yerda gap professional sportchining jismoniy madaniyatiga oid talablar haqida emas, balki tabiiy harakatchanligi, kelishgan qaddi-qomati, jismoniy fazilati bilan ajralib turuvchi sog'lom inson haqida bormoqda. Binobarin, sog'lomlik bebaaho boylik, moddiy va ma'naviy ne'matlar yaratish asosi, oliy qadriyat sanalgan inson kamolotining tarkibiy qismidir. Birinchi Prezident I.A.Karimov ta'kidlaganidek, jismoniy madaniyati yuksak "odamning ko'nglida hayotdan norozilik, boshqalarga nisbatan alam va hasad bo'lmaydi, uning yuragi, ruhi toza bo'ladi". Shu ma'noda, jismoniy kamolotni ma'naviy, ruhiy boylik bilan ta'minlash esa milliy taraqqiyotimizning asosini tashkil qiladi. Ma'naviy va jismoniy sog'lom inson ijodiy qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish imkoniyatlariga ega, kayfiyati yuqori, ijodkor bo'ladi. Bu narsa uning nafaqat jismoniy mehnat sohasi, balki estetik qadriyatlarni yaratishdagi faolligida ham ko'zga tashlanib turadi.

XULOSA

Yangi O'zbekistonning jahon hamjamiyatidagi nufuzini oshirishda fan va texnika, ishlab chikarishning barcha sohalari bilan bir qatorda madaniyat, san'at va sportning o'rni va nufuzi alohida ajralib turadi. Shu bois talaba-yoshlarda sportga bo'lgan qiziqish keskin oshib bormoqda. Bu qiziqishni tarbiyaning muhim vositasi sifatida uning mazmuni va yo'nalishini boyitish, uning negizida jismoniy kamolot bilan bir qatorda estetik tarbiya ham yotishiga erishish, unda sport estetikasi ko'rsatkichlaridan oqilona foydalanish ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida maxsus tadqiqot o'tkazishni talab etadi hamda ijtimoiy pedagogik muammo sifatida muntazamlik kasb etadi. Zero, jamiyat, insoniyat tinimsiz taraqqiyotda bo'lganligi bois uning har bir bosqichi uchun pedagogika fani yangi muammolarni hal etishda davom etaveradi. Jismoniy tarbiya darslari va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda talabalarni estetik tarbiyalash ham ijtimoiy-pedagogik muammolar tizimining tarkibiy qismidir. Zero, barkamol shaxs tarbiyasida mana shu tizim, majmua elementlarining har birining o'z o'rni bor.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

- Лескова Г. П., Буцинская П. П., Васюкова В. И. Общеразвивающие упражнения для спортсменов-Москва: Физкультура и спорт, 2009.-С-257.
- Лоу Б. Красота спорта. М., Радуга, 1984. С.92.
- Лях В. И. Физическая культура.-Москва:Мысль, 2014.-С.-114.
- Махмудов, Б. А. Жисмоний тарбия ўқитувчиларини касбий фаолиятга тайёрлашнинг методологик асослари / Б. А. Махмудов. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2020. — № 52 (342). — С. 459-461. — URL: <https://moluch.ru/archive/342/76832/> (дата обращения: 13.06.2023).
- Махмудов Т. Комиллик асрорлари.-Тошкент: Адолат, 2006. - 81 б.
- Мишагин В. Н., Личностно-ориентированный подход к организации профессиональной подготовки будущего учителя физической культуры. Кан. пед. наук. Дисс. Автореф. Саратов, — 2001. — 190 с.
- Педагогикадан атамалар луғати. — Тошкент: Фан, 2008. — 196 б.
- Ўзбекистон миллый энциклопедияси. 4-жилд. Зебуннисо-Конигил. — Тошкент: Ўзбекистон миллый энциклопедияси, 2002. — 704 б.
- Холодов Ж. К., Кузнецов В. С. Теория и методика физического воспитания и спорта: Учебное пособие для студентов высших учебных заведений. — М., Академия, 2000. — 480 с.